



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 7 - iyul

VI-63-125-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoniga asosan tumanda rekonstruksiya qilingan va ta’mirlangan kanallar, gidrotexnik inshootlar va gidropostlar, ichki sug‘orish tarmoqlaridan samarali foydalanish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4919-sonli qarorning tumandagi ijrosi to‘g‘risida**

Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli farmoniga asosan xo‘jaliklararo kanallardagi 15 dona gidrotexnik inshootlarni ta’mirlash va 11 dona gidropostlarni ta’mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 15 dona gidrotexnik inshootlar va 11 dona gidropostlar to‘liq ta’mirlandi.

Xo‘jaliklararo kanallarni mexanizm yordamida loyqadan tozalash 7,2 km rejalashtirilgan bo‘lib, amalda xo‘jaliklararo kanallarni 7,2 km qismi to‘liq tozalandi. Xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarini tumanda faoliyat yuritayotgan “Zamin Angor cluster” MChJ tomonidan 20.7 km qismini mexanizm yordamida loyqadan tozalash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda to‘liq 20.7 km xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlari tozalandi.

Xo‘jalik ichki kanallarini tumanda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari, MFY xodimlari hamda “Zamin Angor cluster” MChJ tomonidan 138.8 km qismini qo‘l kuchi yordamida loyqadan tozalash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 141 km xo‘jalik ichki kanallari loyqadan tozalandi.

Bugungi kunda Kattaqum massividagi “Yangihayot-1” kanalining 8.0 km qismini rekonstruksiya (*yangitdan betonlash ishlari bajarilmoqda*) qilish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek ichki sug‘orish tarmoqlaridagi 39 dona suv olish qulqlari ta’mirlandi va ichki sug‘orish tarmoqlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Tumanda 2023-yilda jami suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish rejasi 2349 hektar bo‘lib, shundan 1740 ga paxta, 175 ga bog‘, 324 ga boshqa ekinlar. 2023-yil g‘alla maydonlarini yomg‘irlatib sug‘orish 100 ga rejalashtirilgan bo‘lib, amalda “Zamin Angor cluster” MChJ tomonidan 12 hektar g‘alla maydonida yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi joriy etildi. 2500 hektar paxta maydonlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha shartnomalar rasmiylashtirildi.

Bugungi kunda 200 hektar paxta maydoniga 3,5 mlrd so‘m moliyalashtirilgan bo‘lib, quruvchi “ONUR PLAS” MChJ tomonidan 200 hektar paxta maydonga to‘liq joriy qilindi hamda “OMAD STAR ORGANIC” MChJ tomonidan 171 hektar paxta maydoniga suv tejovchi tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilindi va ishlar davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari suvni tejash bo‘yicha “Zamin Angor klaster” MChJ tomonidan 2023-yilda 2000 hektar maydonlarini lazerli yer tekislagich yordamida tekislandi.

Ushbu ishlar amalga oshirilishi natijasida tumanda yil yakunida 4.5 mln<sup>3</sup> suv iqtisod qilinishiga erishiladi.

Suv resurslarini boshqarish, suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini yaxshilash, shuningdek tumanda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish holati to‘g‘risida Angor tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Po‘latovning hisobotini eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

## **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoniga asosan tumanda rekonstruksiya qilingan va ta’mirlangan kanallar, gidrotxnik inshootlar va gidropostlar, ichki sug‘orish tarmoqlaridan samarali foydalanish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4919-sonli qarori ijrosi yuzasidan Angor tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Po‘latovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (J.Po‘latov), tuman Irrigatsiya bo‘limi (Sh.Eshaliyev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (J.Qulsoatov) va tegishli tashkilot rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoniga asosan tumanda rekonstruksiya qilingan va ta’mirlangan

kanallar, gidrotexnik inshootlar va gidropostlar, ichki sug‘orish tarmoqlaridan samarali foydalanish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4919-sonli qarorlariga asosan tuman hududlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni ta‘minlash;

tumandagi fermer xo‘jaliklari, klaster tashkilotlari hamda boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar bilan suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qaror hamda undan kelib chiqadigan vazifalar, berilayotgan imtiyozlar, shuningdek, ushbu texnologiyalarning samaradorligi to‘g‘risida bat afsil ma’lumotlar berib borish;

tumandagi qishloq va suv xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, irrigatsiya tizimlarini barpo etish, ariqlarni tozalash va foydalanishdan chiqib ketgan yerkarni foydalanishga kiritish choralarini ko‘rsin;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qiluvchi fermer xo‘jaliklari, klaster tashkilotlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning takliflarini belgilangan tartibda o‘rganib chiqish va xulosalar berish;

tumanda suv xo‘jaligi ob‘ektlari holatini yaxshilash va rekonstruksiya qilish ishlari bo‘yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan tumanda tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan yer maydonlarida barcha tashkiliy tadbirlarni tashkil etish;

tumandagi suv xo‘jaligi ob‘ektlarini texnik holatini yaxshilash;

talabgorlar va tuman ishchi guruhi ishtirokida, qurilgan suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyasi tizimini sinovdan o‘tkazish, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish hamda belgilangan tartibda foydalanishga topshirish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

### 3. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (Sh.Eshaliev)ga:

mavjud nasoslarni xatlovdan o‘tkazish hamda xatlov natijasida aniqlangan ta‘mortalab nasoslarni bir oy muddatda ta‘mirlash choralarini ko‘rish;

har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yozma hisobot berib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (J.Qulsoatov)ga suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv iste’molchilari tomonidan noqonuniy suv olish holatlari yuzasidan qat’iy choralar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining o‘rnbosari (J.Po‘latov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (T.Eshpo‘latov), tuman Irrigatsiya bo‘limi (Sh.Eshaliyev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (J.Qulsoatov)larga 2023-yilda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qiluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga subsidiya ajratish uchun tegishli tartibda qurilish ishlarini nazorat qilish, qishloq xo‘jaligi korxonalariga ajratilgan resurslardan samarali va maqsadli foydalanish ustidan doimiy monitoring nazoratini o‘rnatsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rnbosari va tegishli mansabdar rahbarlar har chorak yakunida xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma ma’lumot kiritib borsin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Angor yog‘dusi” tuman gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga suv iste’molchilari tomonidan suv resurslaridan foydalanishda qonun buzilish holatlarini tanqidiy yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimining o‘rnbosari (J.Po‘latov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**